

**T.L. XURVALIEVA**

**PEDAGOGIK KASBIY  
KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Xurvalieva Tarmiza Latipovna

PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK

DARSLIK

Magistratura 70110201 - Ta'lim-tarbiya nazariyasi  
mutaxassisligi: va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

-14022/29-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT-2023  
«Yangi chirchiq books» NASHRIYOTI

YDK-378  
KBC-74.1

X-89

Xurvaliyeva T.L.

**Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik:** Darslik. T.: 2023.-120 b.

**Mas'ul muharrir:** X.I. Ibragimov - Pedagogika fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:** N.N. Djamilova - Toshkent Davlat

pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Z.S. Teshabayeva - CDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mazkur darslikda "Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik" fanining asosiy masalalari, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligi va kreativlikning nazariy-amaliy asoslari, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari, kompetentlik darajalari, muhim funksional kompetensiyalar, tarbiyachining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha pedagogik-psixologik kollobratsiya, jahon ta'lim amaliyotidagi muhim kompetensiyalar nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, kasbiy malaka va pedagogik mahorat, zamonaviy tarbiyachi imdji, kreativlik tushunchasi, kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar, kreativ potentsiallik darajasini aniqlovchi mezonlar, kasbiy kompetentlik komponentlari yoritilgan.

Darslikda tarbiyachining kasbiy kompetensiya turlari va ularning bog'liqligi, kompetentlikni rivojlantiruvchi vositalar, pedagog kreativlik potentsialining ustuvor tamoyillari, kasbiy kompetensiya talablari, tarbiyachining pedagogik faoliyatini modelashirishga oid ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

*Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 30 dekabrda gi 429-sonli buyru g'iga asosan chop etishga ruxsat etilgan.*

ISBN 978-9943-9169-8-2

## KIRISH

Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va integratsiyaga asoslangan ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish sifatini oshirish, zamonaviy talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash tizimini qaror topirish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning real hayotiy vaziyatlarda qo'l kelishiga erishish, ta'lim mazmunining hayotiy ahamiyatini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Talabalarda kasbiy kompetensiya va kasbiy bilim, ko'nikmalarini shakllantirish masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuiga kiruvchi predmetlar mazmuniga singdirilgan masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunining 4-moddasida "O'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tubqulashdirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi; ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirishi" <sup>1</sup> kabi vazifalar ko'rsatilgan.

Uchinchi Renessans yo'lidan borayotgan ilmiy uyg'unish, yangi kashfiyot va ixtirolar qilish jarayonida Respublikamiz yoshlarini ijtimoiy muhitga moslashirish, ilm-fan bilan shug'ullanishga yo'naltirish hozirgi davrning muhim vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda ta'lim sohasini modernizatsiyalash talaba-yoshlarning intellektual va ma'naviy barkamol bo'lishini ko'zda tutadi.

Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, ta'limning asosiy bosqichi - maktabga har tomonlama tayovlashni ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonunining 39-moddasida tarbiyachilar "Pedagogik etkaga rioya etishi, bolaning shaxsi va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillarga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyokkorona munosabatcha bo'lish ruhida tarbiyalashi; maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi; o'z malakasini oshirishi; kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashirishi shart"<sup>2</sup> deb belgilab qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlikning nazariy asoslari bilan tanishtirish, tarbiyachi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. Toshkent. 2020 yil 23 sentabr. O'RO-637-son.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida". 2019 yil 16 dekabr. O'RO-595-son.

faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishni o'rgatish, tadbirlarni tashkillostirish va sifat samaradorligini oshirishda yangicha yondashuv, samarali metod, vosita va shakllardan foydalanish mahoratiga ega bo'lishning mazmun-mohiyati, tamoyili, metodlari va sog'lom avlodni tarbiyalash masalalariga oid bilim, ko'nikma va malakalar berishdan iborat.

“Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik” darsligining mazmuni bo'ljak tarbiyachilarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, kompetensiyaga oid ilmiy izlanishlar, xorijiy tajribalar, kompetensiyani rivojlantirish yo'llari, pedagogik mahorat kabi masalalar haqida tasavvur hosil qilishdan iborat. Darslikda tarbiyachi-pedagog faoliyatiga kreativ yondashuv, zamonaviy tarbiyachi imidfiga qo'yilgan zamonaviy talablar, bola shaxsining ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini didaktik tamoyillarga mos ravishda tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim tarbiya mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va bolalarga yetkazish kabi ma'lumotlar berilgan.

## I. BOB. TARBIVACHII KASBIY KOMPETENTLIGINING UMUMIY TASNIFI

### § 1. Kompetensiya haqida tushuncha

Tez o'zgarayotgan Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmogda. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimi uchun yuqori malakali pedagoglar tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'ljak maktabgacha ta'lim tarbiyachilari zamonaviy talablar asosida kasbiy bilim, ko'nikma va malaka ega bo'lishi dolzarb sanaladi. Ularda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hozirgi zamon ta'lim sifatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

So'nggi o'n yilda pedagogika sohasida “kompetensiya”, “kompetentlik” tushunchalari qo'llanilmogda. Bu esa ta'lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan uzviy bog'liq. Inglizcha “**competence**” tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatta nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”dan iborat.


“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kiritib kelgan. SHu sababi kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, mulqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va muvakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. SHuningdek, “kompetentlik” tushunchasi faoliyatta nazariy bilimlardan samarali foydalanish yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish deb talqin etiladi.

**Kompetentlik** bu- shaxsning tanlagan kasbi bo'yicha egallagan bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni amaliyotga qo'llay olishi qobiliyati, layoqati va kasbiy muammolarni mustaqil hal qila olishidir.

Kompetensiyalar talab bo'lib, kompetentlik-usbu talablar bajarilishining namoyonidir.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka tushunchalaridan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ular shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi, qadriyatlarining yo'nalishlari), uning stereotiplarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini - mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

«Kompetensiya» tushunchasining yuzaga kelish bosqichlari quyidagilar:



**1-rasm. Kompetensiyaning yuzaga kelish bosqichlari**

So'nggi yillarda "kompetentlik" tushunchasi va uning tarkibiga kiruvchi kompetentliklar mazmunini aniqlatirish, pedagogik faoliyatni rivojlantirish muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu esa, ularni tasniflash muammosini yuzaga keltiradi. Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

L.V.Zanina, N.P.Menshikovning fikricha, "kasbiy-pedagogik kompetensiya ma'lum bir qadriyatlar, ideallar va pedagogik ongning sohibi sifatida pedagogik faoliyat, pedagogik muomala va shaxsini shakllantirishni aniqlaydigan bilim, ko'nikmalar tizimiga egalikdir"<sup>3</sup> Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda o'quv jarayonida media va innovatsion muhit yaratish talab etiladi. Chunki bo'lajak tarbiyachilar maktabgacha ta'limga doir yangiliklardan axborot maydoni orqali xabarдор bo'ladi.

**Kasbiy kompetentlik**-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

SHundan, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka tushunchalaridan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ular shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi, qadriyatlarining yo'nalishlari), uning stereotiplarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

<sup>3</sup> Zanina L.B., Menshikova N.P. Основы педагогического мастерства. - Ростов-на-Дону: "Феникс", 2003. - 288 с.

**Kompetensiya**-biror soha bo'yicha har tomontlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining ahlak.

Umuman "kompetensiya" va "kompetentlik" atamalari pedagog olimlar tomonidan bir xilda talqin etilmaydi.

Kompetentlik tushunchasi ma'lum sifatarni, ularni egallash darajasini belgilashni nazarda tutadi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka tushunchalaridan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ular shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi, qadriyatlarining yo'nalishlari), uning stereotiplarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini-mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

M.A.Choshanov "kompetensiya" - bu nafaqat bilimga ega bo'lish, balki uni munozam yangilash va aniq sharoitlarda qo'llash istagi, ya'ni, tezkor va harakatchan bilimlar: bu eng maqbul va samarali yechimlarni tanlash va noto'g'ri mulohazalarni rad etish qobiliyatini anglatuvchi fikrlashning moslashuvchanligi va tanqidiyligi<sup>4</sup> deb qaraydi.

Hozirgi vaqtda "kompetentlik" tushunchasi va uning tarkibiga kiruvchi komponentlar mazmunini aniqlash, faoliyatning turli sohalarida ularni shakllantirish hamda rivojlantirish muammolari bo'yicha juda ko'p tadqiqot materiallari mavjud.

Kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik kabi tushunchalarning mohiyati mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan. N.SH.Turdiev va Yu.M.Asadovlar "kompetentlik", "kompetensiya" tushunchalariga quyidagicha ta'rif beradi: "bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi; shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlarini; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi; muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati; shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim; ko'nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tadbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui; shaxsning maqsadli yo'natirilgan emosional iroda kuchi"<sup>5</sup>. Talabalarda kasbiy

<sup>4</sup> Пашинев М. А. Проблемы технологии проблемно-модульного обучения. - М.: 1996. - 162 с.

<sup>5</sup> Турдиев Н.Ш., Асədov Yu.M., Акбарова С.Н., Теміров D.Ш. Umumiy o'rta ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. T.N.Qodi Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.: 2015. -B/ 16038-bet